

INDONEZIYA TASHQI SIYOSATDA DIN VA BAG'RIKENGLIK MASALALARINING USTUVORLIGI

Badiyev Shukurjon

Toshkent Islom instituti,

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Indoneziya Respublikasi din siyosati va xalqaro munosabatlardagi diniy bag'rikenglik masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda din va bag'rikenglik masalalari tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Ular nafaqat davlatlarning ichki barqarorligi, balki ularning tashqi siyosati, diplomatiyasi va global jarayonlarga ta'siri uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Davlatlar o'z diniy siyosatini tashqi siyosatining ajralmas qismiga aylantirmoqda. Din nafaqat ichki ijtimoiy-madaniy hayotning ajralmas qismi, balki tashqi siyosatda ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: *diniy bag'rikenglik, terrorizmga qarshi kurash, legitimatsiya, diniy birdamlik, xavfsizlik, diniy ekstremizm.*

ABSTRACT

This article analyzes the issues of religious tolerance in the religious policy of the Republic of Indonesia and international relations. Issues of religion and tolerance are increasingly important in modern international relations. They are of decisive importance not only for the internal stability of states, but also for their foreign policy, diplomacy and influence on global processes. States are making their religious policy an integral part of their foreign policy. Religion is not only an integral part of domestic socio-cultural life, but also appears as an important factor in foreign policy.

Keywords: *religious tolerance, counterterrorism, legitimation, religious solidarity, security, religious extremism.*

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab globallashuv, madaniyatlararo muloqot va mintaqaviy xavfsizlik masalalarida din siyosiy qarorlar qabul qilishda muhim strategik vositaga aylandi. Ko'plab davlatlar tashqi siyosatida diniy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash, diniy tashkilotlar bilan hamkorlik va diniy diplomatiyani rivojlantirish orqali o'z manfaatlarini ilgari surishga intilmoqda¹.

¹ Fox, Jonathan, and Shmuel Sandler. Bringing Religion into International Relations. New York: Palgrave Macmillan, 2004. p. 38.

Din endi shaxsiy e'tiqod doirasida cheklanib qolmay, xalqaro munosabatlarda muhim geosiyosiy vosita sifatida ishlatilmoqda.

Ko'plab davlatlar o'zlarining tashqi siyosati maqsadlariga erishish uchun diniy diplomatiyadan foydalanadi. Bu, o'zining diniy mo'tadilligi va bag'rikengligini targ'ib qilish orqali xalqaro hamkorlar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishni o'z ichiga oladi. Masalan, Indoneziya o'zining mo'tadil islom modelini targ'ib qilib, global sahnada tinchlikparvar davlat sifatida tanilishga intiladi².

Ba'zi davlatlar o'z dinini yoki diniy guruhlarini himoya qilish niqobi ostida geosiyosiy ta'sirini kengaytirishga harakat qiladi. Rossiya Federatsiyasi va Serbiya o'rtasidagi pravoslavlik, Turkiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi Islom hamda Isroil va AQSh o'rtasidagi diniy aloqalar bunga misol bo'la oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish terrorizmga qarshi kurash strategiyasining muhim qismiga aylandi. Davlatlar, xususan, G'arb mamlakatlari Islom dini bilan terrorizmni bog'lashga qarshi chiqib, ko'plab musulmon davlatlari bilan diniy muloqot va hamkorlikni kuchaytirishga intildi.

Terrorizmga qarshi kurashga ixtisoslashgan tashqi siyosat, diniy radikallasuvga qarshi kurashish uchun xorijiy hamkorlar bilan bilim va tajriba almashishni o'z ichiga oladi. Indoneziya, Malayziya va Singapur kabi davlatlar terrorizmga qarshi kurashda AQSh va Yevropa Ittifoqi bilan yaqin hamkorlik qilmoqda³.

Dinlararo muloqot va nizolarni hal qilish, ya'ni diplomatiya, nafaqat davlatlararo munosabatlarda, balki dinlararo muloqot orqali ham tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) va Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) kabi xalqaro tashkilotlar diniy erkinlik va bag'rikenglik bo'yicha global forumlar o'tkazib, davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishga harakat qilmoqda. "Sivilizatsiyalar Alyansi" (Alliance of Civilizations) kabi tashabbuslar turli madaniyatlar va dinlar o'rtasida o'zaro hurmatni rivojlantirishga qaratilgan.

Ko'plab xalqaro nizolarning, masalan, Yaqin Sharq yoki Afrikadagi mojarolarning diniy tomonlari bo'lishi, diplomatlarni diniy yetakchilar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga undaydi. Bu, nizolarni faqat siyosiy yoki iqtisodiy

² Crouch, Harold, 2008: "The soft power of Indonesia's Islam." The Journal of East Asian Affairs, 22(1), p. 28.

³ Jones, Sidney, 2018: "The Role of Indonesian Muslims in Global Counterterrorism Efforts." Institute for Policy Analysis of Conflict (IPAC) Report. p.44.

yondashuvlar orqali emas, balki madaniy va diniy jihatlarni ham hisobga olgan holda hal qilish zarurligini ko'rsatadi⁴.

Xalqaro huquq va inson huquqlari to'g'risidagi konvensiyalar din erkinligini asosiy huquq sifatida tan oladi. Ba'zi davlatlar o'z hududida diniy ozchiliklarni ta'qib qilsa, ularga nisbatan xalqaro bosim o'rnatiladi. AQSh Davlat departamentining "Xalqaro diniy erkinlik bo'yicha yillik hisobotlari" kabi hujjatlar ma'lum davlatlarni diniy erkinlik buzilishlari uchun javobgarlikka tortishda muhim rol o'ynaydi. Bu holat, davlatlarning ichki diniy siyosati ham xalqaro nazorat ostida ekanligini anglatadi. Din masalasi tashqi siyosatda uch asosiy shaklda namoyon bo'ladi.

Birinchisi, legitimatsiya vositasi sifatida, ya'ni hukumatlar o'z tashqi siyosiy qarorlarini diniy qadriyatlarga tayanib asoslaydi. Masalan, musulmon davlatlar Falastin muammosida siyosiy pozitsiyalarini diniy birdamlik orqali mustahkamlashadi⁵.

Ikkinchisi, diniy birdamlik asosidagi hamkorlik bo'lib, davlatlar diniy yaqinlik orqali mintaqaviy va xalqaro ittifoqlar tuzadi. Masalan, Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) yoki Vatikanning xalqaro diplomatiyadagi o'rni⁶.

Uchinchisi esa xavfsizlik va diniy ekstremizmga qarshi kurash global siyosatda din ko'pincha xavfsizlik masalalari bilan bog'liq holda ko'riladi. AQSh va Yevropa Ittifoqining tashqi siyosatida "diniy erkinlik" masalasi shu nuqtai nazardan ko'tariladi⁷.

Yuqorida bayon qilganimizdek din masalasi tashqi siyosatda o'zining uchta asosiy vazifasini bajaradi - legitimatsiya, birdamlik va xavfsizlik. Shu bois, zamonaviy diplomatiyada dinni e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. U davlatlarning xalqaro imijini mustahkamlash, yumshoq kuch resurslarini kengaytirish va global xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Din masalasining ustuvorligi sababli tashqi siyosatda bir qator yo'nalishlar kuzatiladi. Diniy diplomatiya bu davlatlar diniy yetakchilar, cherkovlar va diniy tashkilotlardan yumshoq kuch ("soft power") sifatida foydalanadi. Masalan, Vatikan diplomatiyasi xalqaro inqirozlarni yumshatishda muhim rol o'ynaydi⁸.

Musulmon mamlakatlar tajribasi esa O'rta Sharq va Markaziy Osiyo davlatlarida diniy qadriyatlar milliy manfaatlar bilan uyg'unlashtirilib, tashqi

⁴ Appleby, R. Scott, 2000: The Ambivalence of the Sacred: Religion, Violence, and Reconciliation. Rowman & Littlefield. p. 38.

⁵ Mandaville, Peter. Global Political Islam. Routledge, 2007. p. 61.

⁶ Bastian, Jean-Pierre. "Religion and International Relations: A European Perspective." Religion, State & Society, vol. 39, no. 2-3, 2011. p. 16.

⁷ Thomas, Scott M. The Global Resurgence of Religion and the Transformation of International Relations. Palgrave Macmillan, 2005. p. 37.

⁸ Warner, Carolyn M., and Stephen G. Walker. "Thinking about the Role of Religion in Foreign Policy: A Framework for Analysis." Foreign Policy Analysis, vol. 7, no. 2, 2011. pp. 7-8.

siyosatda ustuvor yoʻnalishga aylanmoqda. Masalan, Turkiya tashqi siyosatida “Neo-Usmoniylik” konsepsiyasi diniy va tarixiy merosga tayangan holda shakllangan⁹.

Din va global siyosat yoʻnalishi BMT va boshqa xalqaro maydonlarda diniy erkinlik, muqaddas joylarni muhofaza qilish, diniy ekstremizmga qarshi hamkorlik masalalari muntazam muhokama qilinadi.

Diniy bagʻrikenglik masalasi zamonaviy xalqaro munosabatlarning eng dolzarb yoʻnalishlaridan biridir. Globallashuv sharoitida turli din va eʼtiqod vakillarining bir hududda, hatto bir davlat doirasida yashashi, ularning huquqlari va erkinliklarini taʼminlash masalasini nafaqat ichki siyosatda, balki tashqi siyosatda ham ustuvor vazifa qilib qoʻymoqda. Shu sababli, koʻplab davlatlarning xalqaro maydondagi tashabbuslari diniy bagʻrikenglikni rivojlantirish, diniy erkinlikni taʼminlash va ekstremizmga qarshi kurash masalalari bilan chambarchas bogʻliqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fox, Jonathan, and Shmuel Sandler. Bringing Religion into International Relations. New York: Palgrave Macmillan, 2004. p. 38.
2. Crouch, Harold, 2008: “The soft power of Indonesia's Islam.” The Journal of East Asian Affairs, 22(1), p. 28.
3. Jones, Sidney, 2018: "The Role of Indonesian Muslims in Global Counterterrorism Efforts." Institute for Policy Analysis of Conflict (IPAC) Report. p.44.
4. Appleby, R. Scott, 2000: The Ambivalence of the Sacred: Religion, Violence, and Reconciliation. Rowman & Littlefield. p. 38.
5. Mandaville, Peter. Global Political Islam. Routledge, 2007. p. 61.
6. Bastian, Jean-Pierre. “Religion and International Relations: A European Perspective.” Religion, State & Society, vol. 39, no. 2–3, 2011. p. 16.
7. Thomas, Scott M. The Global Resurgence of Religion and the Transformation of International Relations. Palgrave Macmillan, 2005. p. 37.
8. Warner, Carolyn M., and Stephen G. Walker. “Thinking about the Role of Religion in Foreign Policy: A Framework for Analysis.” Foreign Policy Analysis, vol. 7, no. 2, 2011. pp. 7-8.
9. Öztürk, Ahmet Erdi. Religion, Identity and Power: Turkey and the Balkans in the Twenty-First Century. Edinburgh University Press, 2021. p. 41.

⁹ Öztürk, Ahmet Erdi. Religion, Identity and Power: Turkey and the Balkans in the Twenty-First Century. Edinburgh University Press, 2021. p. 41.